

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 364.1:316.72(575.1)

O'ZBEKISTONDA OILAVIY ZO'RAVONLIKNING OLDINI OLISHDA KONFORMIZM OMILINING AHAMIYATI**ЗНАЧЕНИЕ ФАКТОРА КОНФОРМИЗМА В ПРОФИЛАКТИКЕ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ****THE IMPORTANCE OF CONFORMISM IN PREVENTING FAMILY VIOLENCE IN UZBEKISTAN**

Tursunboyev Zuxrob Toxir o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda tazyiq va zo'rvonliklarning kelib chiqish omillari hamda ularni oldini olishda konformizm omilining ijobiy va salbiy jihatlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda maishiy zo'rvonlikning ijtimoiy, psixologik va madaniy asoslari ochib berilib, gender stereotiplar va ijtimoiy muhitning ushbu jarayondagi ta'siri yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv markazlari faoliyati tahlil qilingan. Konformizm omilining oilaviy munosabatlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, zo'rvonlikni yashirish va davom ettirishga xizmat qiluvchi salbiy tomonlari ham asoslab berilgan.

Аннотация

В данной статье научно проанализированы факторы происхождения домогательств и насилия в семейных отношениях, а также положительные и отрицательные аспекты фактора конформизма в их предотвращении. Исследование раскрывает социальные, психологические и культурные основы домашнего насилия и освещает влияние гендерных стереотипов и социальной среды на этот процесс. Также были проанализированы нормативно-правовые акты, государственные программы, направленные на защиту женщин в Узбекистане от притеснений и насилия, а также деятельность центров реабилитации и социальной адаптации. Наряду с положительными аспектами фактора конформизма в обеспечении социальной стабильности в семейных отношениях обоснованы и отрицательные, служащие для сокрытия и увековечения насилия.

Annotation

This article scientifically analyzes the factors of origin of repression and violence in family relationships and the positive and negative aspects of the conformism factor in their prevention. The study reveals the Social, Psychological and cultural foundations of domestic violence, highlighting gender stereotypes and the impact of the social environment in this process. The activities of regulatory legal acts, state programs and rehabilitation and social adaptation centers aimed at protecting women from harassment and violence have also been analyzed in Uzbekistan. In addition to the positive aspects of the conformism factor in ensuring social stability in family relationships, the negative aspects that serve to hide and perpetuate violence are also justified.

Kalit so'zlar: oilaviy zo'rvonlik, tazyiq, konformizm omili, gender tengligi, gender stereotiplar, ijtimoiy moslashuv, reabilitatsiya markazlari, xotin-qizlarni himoya qilish.

Ключевые слова: домашнее насилие, домогательства, фактор конформизма, гендерное равенство, гендерные стереотипы, социальная адаптация, реабилитационные центры, защита женщин.

Key words: domestic violence, repression, conformism factor, gender equality, gender stereotypes, social adaptation, rehabilitation centers, protection of women.

KIRISH

Mamlakatimizda xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda ayollarni har qanday tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalashlaridan biri sifatida belgilangan. Binobarin, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonlarida xalqimizga yot bo'lgan zo'rvonlik harakatlariga butunlay barham berish, xotin-qizlarimizni har qanday tazyiqlardan himoya qilish oldimizda turgan muhim vazifalardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"

ILMIY AXBOROT

2019 yil 7 martdagi PQ-4235-sonli, hamda "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 2 iyuldagi PQ-3827-sonli qarorlari yuqorida aytib o'tilgan masalalarga davlat miqyosida ko'rsatilayotgan e'tiborning dalilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'zbekistonda oilaviy zo'ravonliklarni oldini olishning ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik jihatlarini N.M.Ilatipova, O.Musurmonova, N.R.Nishonova, M.X.Xolmatova, G.Matkarimova, X.Nasrullayeva, N.Jo'rayeva, M.Nurmatova, E.Sultonova, S.X.Safayeva, Sh.Sodiqova, G.J.G'aniyeva, M.Q.G'afforova kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.I.Amanbayeva, A.V.Belyayev, M.V.Bogomaz, L.S.Vigotskiy, Dj.Karpara, V.A.Sitarov, G.K.Selevkolar oilaviy zo'ravonliklarni oldini olishning ijtimoiy-psixologik jihatlarini, G.M.Andreyeva, V.V.Antipov, L.P.Bogdanova, A.Varga, I.F.Dementyeva, T.R.Kirimov, P.R.Novikov, YE.G.Silyayeva, L.B.Shneyderlar oiladagi shaxslararo munosabatlar, oilaviy nizolarni oldini olishda psixologik xizmatning zarurligi, psixologik maslahatning asosiy talablarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan.

Oilaviy zo'ravonliklarga qarshi kurashishda genderli yondashuv imkoniyatlari va gender identiklik masalalari bir qancha xorijiy tadqiqotlarda keng ko'lamda o'z o'rnini topgan. Jumladan, ushbu masalani konstruktiv paradigma nuqtai-nazaridan tadqiq etgan olimlar qatoriga R.Konnella, P.Burdaye, Dj.Skott, V.Spayk Peterson, O.A.Voroninalarni kiritish mumkin. Xotin-qizlar masalasi, ularni ijtimoiy himoya qilish haqidagi hozirgi zamon o'zgarishlari nuqtai nazaridan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan N.Najib, E.Xelen, A.Kitchen, M.Kovalskiy, D.Ruts, L.Xusniykabi jahonning etakchi olimlari tomonidan xalqaro gumanitar huquq doirasida maishiy zo'ravonlik holatlari va ularning huquqiy echimlari, zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollarni ruhiy va psixologik tushkunlikdan chiqarishga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik qilishning oldini olish – eng muhim va dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Zo'ravonlik ularning ruhiy, ijtimoiy, psixologik, jismoniy salomatligiga zarar etkazibgina qolmaydi, balki uni ijtimoiy jihatdan tartibga solinmagan shaxs sifatida jiddiy ijtimoiy oqibatlariga ham olib keladi.

Maishiy zo'ravonlik (oiladagi zo'ravonlik) – butun dunyoda keng tarqalgan va har qanday millat, ijtimoiy sinf va ilmiy salohiyat (bilim)ga ega bo'lgan jamiyat vakillari uchun xos bo'lgan hodisadir. Bizning respublikamiz ham bundan mustasno emas. Jamoatchilik orasida zo'ravonlik, faqat ijtimoiy notinch oilalarda yuz beradi, deyiladigan fikr keng tarqalgan. Lekin zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan bu fikrning butunlay noto'g'ri ekanligi isbotlangan.

Zo'ravonlik salbiy ijtimoiy hodisa bo'lib, juda murakkab mavzu hisoblanadi. Uning qurbonlari ko'pgina hollarda sukut saqlashga majburlar va bu zo'ravonlik qurbonlari bo'lgan xotin-qizlar bilan ishlash, muloqotga kirishish alohida yondashuvni talab etadi.

Oilalarimizda yuzaga keladigan bunday vaziyat albatta bir necha muammolar, jumladan, inqiroz va ertangi kunga bo'lgan ishonchsizlik, hayotiy muhim qarorlarni qabul qilish majburiyatini o'z zimmasiga olmaslik, inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarining o'z qiymatini yo'qotishi va turli xil ruhiy muammolarning uyg'unlikdagi ko'rinishlaridan kelib chiqadi. Agar biz gullab-yashnayotgan, farovonlashib borayotgan, zamonaviy O'zbekistonda yashashni istasak, birinchi navbatda, fuqarolik va insonlikning qadriga etishimiz va uni himoya qilish zarurligini to'liq tushunib olishimiz kerak.

Agar bu holatni ilmiy tahlil qiladigan bo'lsak, uning kelib chiqishi asosan, gender stereotiplar – jamiyatda erkaklar va ayollarning o'rni va roli haqidagi an'anaviy tushunchadan kelib chiqqan holda, turli jinsdagi vakillarning xususiyatlari va xulq-atvori to'g'risidagi umumiy fikrning ta'siri natijasida bo'lishi mumkin. Gender stereotiplar ushbu jamiyatda mavjud bo'lgan gender rollar bilan chambarchas bog'liq bo'lib ularni saqlash va ko'paytirishga, xususan, gender stereotiplar gender tengsizlikni saqlashga xizmat qiladi. Ushbu holatni bartaraf etishda jinsga qarab diskriminatsiyaning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarni tushunish va hisobga olish, ya'ni gender sezgirlik muhim ahamiyatga egadir.

2018 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida tashkil qilingan

zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish Markazlari o'z shaxsiy va ijtimoiy hayotida qiyin ahvolga uchragan ayollarga ularning oila a'zolariga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, erkak va ayollar o'rtasida hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish, oila institutini mustahkamlash, har tomonlama etuk va barkamol kelajak avlodini tarbiyalash hamda xotin-qizlarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Xotin-qizlar jamoat fondi hisobidan Respublika markaziga 7 ta, viloyat markazlariga 3 tadan shtat joriy qilingani markazlar faoliyatining to'g'ri tashkil etilishiga xizmat qildi.

Shuningdek, ushbu markazlarda:

- insonning ma'naviy boyligi, qadr-qimmat, madaniyat g'oyalarini targ'ib qilish, oila institutini mustahkamlash, har tomonlama barkamol va mustahkam oila modelini targ'ib etish, shakllantirish borasida turli o'kuv-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish;

- sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va tibbiy madaniyatni oshirish;

- xotin-qizlar salomatligini yaxshilash, yuqumli kasalliklar, erta nikoh va homiladorlik holatlarining oldini olish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha tadbirlar o'tkazish;

- yosh qizlarni milliy an'analarni va ma'naviy boylklarni meros qilib olishga asoslangan oilaviy hayotga, barkamol onalikka tayyorlash;

- xotin-qizlarda o'z-o'zining bahosini oshirish va mustahkamlash, o'zini o'zi anglash tuyg'usini, ularning ijtimoiy mavqeini ko'tarish;

- qizlarga va ayollarga nisbatan jamiyatning yangi munosabatini shakllantirish;

- qiyin ahvolga tushib qolgan ayollarga va ularning oila a'zolariga psixologik va huquqiy maslahatlar berishni tashkil qilish;

- mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish davrida xotin-qizlarning ijtimoiy moslashish masalalarini hal qilishga, xotin-qizlar va bolalarni o'qitish, qayta o'qitish va ishga joylashtirish masalalarini echilishga ko'maklashish;

- notinch-oilalar, noqobil va tarbiyasi og'ir bolalar bilan tegishli ishlar olib borish;

- ayollarning huquqiy savodxonligini, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;

- viloyatdagi davlat va jamoat tashkilotlarining xotin-qizlar huquq va manfaatlarini ilgari surish bo'yicha harakatlarini muvofiqlashtirish va oilada huquq tartibi buzilishining oldini olish;

- xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda ularning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

- oilada o'zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni, erkaklar va ayollarning teng huquqlarini, oilaviy nizolarni echish usullari, oiladagi ma'nan va ruhan sog'lom muhitni shakllantirish yo'llari bo'yicha keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini, ma'rifiy dasturlarini olib borish;

- xotin-qizlar va ularning farzandlari hayotda duch kelgan ijtimoiy muammoni hisobga olgan holda ularni kompleks qo'llab-quvvatlash, ya'ni ularni yuridik, psixologik, ijtimoiy yordam va vaqtinchalik boshpana bilan ta'minlash kabi vazifalar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi boshchiligidagi, BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA) ko'magida Rehabilitatsiya va moslashtirish respublika markazi qoshida «Zo'ravonlikka yo'l yo'q!» telegram kanali faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kanal eng avvalo, xotin-qizlar, qolaversa, gender zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish masalasi bilan bevosita va bilvosita daxldor bo'lgan davlat-nodavlat idora va tashkilotlar, jurnalist va blogerlar hamda keng omma uchun mo'ljallangan.

Telegram kanalida xotin-qizlarning o'zlari yoki yaqinlari, oilada yoxud ish joyida gender zo'ravonlikka uchragan taqdirda, kerakli huquqiy yordam, amaliy ma'lumot, kimga va qayerga murojaat qilishi haqida zarur axborotlarga ega bo'lishi mumkin. Bu erda ular uchun mamlakatimiz va jahon miqyosida gender tenglikni ta'minlash va gender zo'ravonlikka qarshi kurashishga oid eng so'nggi yangilik va xabarlar joylashtirib boriladi. Shuningdek, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarga erishish haqidagi xotin-qizlarni qiziqtirgan savollarga javob topish mumkin.

Hozirgi kunda tazyiq va zo'ravonlikka uchrab, qiyin ahvolga tushib qolgan ayollarni rehabilitatsiya qilish maqsadida respublikamizda faoliyat olib borayotgan ijtimoiy moslashuv markazlari tomonidan quyida keltirilgan xizmat turlari amalga oshirilmoqda.

Huquqiy xizmatlar:

- oilaviy nizolardan jabr-zulm ko'rgan ayollarga huquqiy maslahat;

- sud va boshqa organlarga murojaat qilish uchun ayolning hujjatlarini tayyorlash va sud jarayonida ularning manfaatini himoya qilish;

- oilaviy nizolardan jabr ko'rgan ayollar manfaatini davlat organlarida himoya qilish.

Psixolog xizmatlari:

- ayollarga psixolog maslahatlar berish;

- mijozning individual dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mijozlar o'rtasida o'zaro yordam guruhini tashkil etish;

- axolining psixologik bilimini oshirish.

Ijtimoiy xizmatlar:

- mijozga muammoli vaziyatni hal qilish bo'yicha maslahatlar berish;

- ayollarning individual, kasbiy va bilim olish sohasidagi imkoniyat, ehtiyojlarini aniqlash va individual rejalarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirishda qatnashish va muvofiqlashtirish;

- ayollarning bandligiga ko'maklashish, o'qishga, tibbiy reabilitatsiyadan o'tishiga, ijtimoiy nafaqalarni olishiga ko'maklashish;

- mijozlarning ishga joylashish boshlang'ich bosqichida hamda tibbiy yoki boshqa zarur bo'lgan bilim olish xizmatlaridan foydalanish jarayonida ularga hamrohlik qilish.

- mijozga farzandi bilan yashash uchun zaruriy uy jihozlariga alohida xonalar berish;

- telefon, televizordan foydalanish uchun sharoitlar yaratish;

- yashovchilarni dori-darmon, sanitar-gigiyenik buyumlar bilan ta'minlash;

- bolalarning dam olishini tashkil etish uchun bolalar maydonchasida va bolalar xonasida sharoitlarni yaratish;

- reabilitatsiya markazlarida yashovchi ayollar uchun huquqiy, psixologik va ijtimoiy maslahatlar uyushtirish.

Reabilitatsiya markazida ayollarga huquqiy, psixologik va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi. Oilaviy nizolardan jabr ko'rgan ayollarga huquqiy maslahatlar beriladi, sud va boshqa organlarga murojaat qilish uchun hujjatlari tayyorlanadi hamda sud jarayonida ularning manfaatlari himoya qilinadi, shuningdek, davlat organlarida ayollarning huquqlari va manfaatlari ta'minlanadi. Ayollarga individual psixologik maslahatlar berish, ularning shaxsiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, o'zaro yordam guruhlarini tashkil etish va aholi psixologik bilimini oshirish ishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, mijozlarga muammoli vaziyatlarni hal qilish bo'yicha maslahatlar beriladi, individual, kasbiy va bilim olish sohasidagi imkoniyatlari va ehtiyojlari aniqlanadi, shaxsiy rejalari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Ayollarga bandlikka, o'qishga, tibbiy reabilitatsiyadan o'tishga va ijtimoiy nafaqalarni olishga yordam beriladi, ishga joylashish va zarur bilim olish jarayonida hamrohlik qilinadi. Farzandi bilan yashash uchun zarur uy jihozlari va alohida xonalar ta'minlanadi, telefon va televizor kabi kommunikatsiya vositalaridan foydalanish sharoitlari yaratiladi, yashovchilar dori-darmon va sanitar-gigiyenik buyumlar bilan ta'minlanadi. Bolalar maydonchalari va bolalar xonalarida dam olish sharoitlari tashkil etiladi, shuningdek, reabilitatsiya markazida yashovchi ayollar uchun huquqiy, psixologik va ijtimoiy maslahatlar uyushtiriladi. Barcha xizmatlar ayollarning hayot sifatini yaxshilash, mustaqil hayotga tayyorlash va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda oilaviy munosabatlarda tazyiq va zo'ravonliklarning kelib chiqish omillari hamda ularni oldini olishda konformizm omilining o'rni har tomonlama tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, konformizm oilaviy munosabatlarda ijtimoiy barqarorlik va muvozanatni saqlashga xizmat qilishi mumkin bo'lsada, noto'g'ri shakllanganda zo'ravonlik holatlarini yashirish, jabrlanuvchilarning sukut saqlashiga olib kelish va muammolarning chuqurlashishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oilaviy zo'ravonlikning asosiy omillari sifatida gender stereotiplar, ijtimoiy bosim, huquqiy savodxonlikning etarli emasligi hamda jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan murosaviy munosabatning mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga, konformizmning ijobiy jihatlari oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, ijtimoiy me'yorlarga amal qilish va murosaga asoslangan munosabatlarni shakllantirish orqali sog'lom oilaviy muhitni ta'minlashga xizmat qilishi asoslab berildi.

Maqolada O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv markazlari faoliyatining ahamiyati

ochib berildi. Ushbu tizimlar oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarning huquqiy, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy munosabatlarda tazyiq va zo'ravonliklarni samarali oldini olish uchun konformizm omilini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, gender sezgir yondashuvni kuchaytirish, huquqiy madaniyatni oshirish hamda davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarur. Bu esa jamiyatda sog'lom oila muhitini shakllantirish va xotin-qizlarning huquq hamda manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.44.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. / <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
3. Shiddatli islohotlar yili – Toshkent: Adolat, 2018.–B.6.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.–B.14.
5. Jo'rayeva N.D. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni. Tarix fan. nomz...dis. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtoref. –Toshkent: 2004. – B.16;
6. Nurmatova M. Xotin-qizlar intellektual salohiyatini oshirish – mamlakat tarqqiyotining muhim omili. Toshkent:2018;
7. Sultonova E.Ayol davlatning rivojlanish strategiyasida (Global muammo sifatida): Siyosiy fanlar d-ri ... dis.avtoref. – Toshkent: 2005. – B.42;